TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA RISKINI BAHOLASHDA DOLLARLASHUV TAFOVUTINI HISOBGA OLISH

Muxsinov Nabijon Toxirovich
O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
Valyutani tartibga solish va nazorat qilish
departamenti katta inspektori
E-mail: Muxsinovnabijon@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda tijorat banklari valyuta riskini baholashda faqat ochiq valyuta pozitsiyasi bilan cheklanmasdan, kreditlar va depozitlar dollarlashuvi o'rtasidagi tafovutni hisobga olish zarurligi asoslangan. 2021–2025-yillardagi so'm kursi o'zgarishi va dollarlashuv ko'rsatkichlari tahlili depozitlar valyuta tarkibi kreditlarga nisbatan tezroq o'zgarayotganini ko'rsatdi. Natijada valyuta riskining kredit riski orqali namoyon bo'ladigan bilvosita kanali kuchaymoqda va uni baholash usullarini takomillashtirish talab etiladi.

Kalit so'zlar: valyuta riski, dollarlashuv tafovuti, valyuta kursi, ochiq valyuta pozitsiyasi, xedjlanmagan qarz oluvchilar.

Kirish

Valyuta riski deganda valyuta kursining o'zgarishi natijasida bankning daromadi yoki kapitali kamayishi ehtimoli tushuniladi[1]. Mahalliy adabiyotlarda bu risk, asosan, tranzaksion, iqtisodiy va translyatsion turlarga ajratilib o'rganilgan[2]. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosiy yo'qotishlar bankning o'z pozitsiyasidan emas, xorijiy valyutada qarz olgan, ammo daromadi milliy valyutada bo'lgan mijozlar orqali yuzaga kelishini ko'rsatadi[3].

Tezisning maqsadi O'zbekiston bank tizimi ma'lumotlari asosida valyuta riskining bilvosita kanalini baholash va uni baholash amaliyotiga kiritish yo'llarini ko'rsatishdan iborat.


Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda dinamik va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Axborot bazasini Markaziy bankning rasmiy valyuta kurslari va moliyaviy barqarorlik sharhlari tashkil etdi. Valyuta riskining bilvosita kanali kreditlar va depozitlar dollarlashuvi o'rtasidagi farq – dollarlashuv tafovuti orqali baholandi.

Tahlil va natijalar

Bank tizimida valyuta riskining manbai, avvalo, kurs o'zgaruvchanligidir. 2021–2025-yillarda so'm kursining yillik o'zgarishi keng oraliqda tebrangan (1-rasm).

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.



1-rasm. AQSh dollarining so'mga nisbatan rasmiy kursining yillik o'zgarishi, foizda[4]

2023-yilda so'm 9,9 foizga qadrsizlangan bo'lsa, 2025-yilda 6,9 foizga mustahkamlangan. Bunday ikki yo'nalishli tebranish bank uchun kursning nafaqat oshishi, balki pasayishi ham risk ekanini ko'rsatadi: xorijiy valyutadagi aktivlari ko'p bo'lgan bank kurs pasayganda kapitalining bir qismini yo'qotadi.


Valyuta riskini baholashda bevosita va bilvosita kanallarni ajratish muhim (1-jadval).

1-jadval

Bank tizimida valyuta riski kanallari va ularning ko'rsatkichlari[5]

Risk kanali	Ko'rsatkich	2025-yil qiymati
Bevosita	Sof ochiq valyuta pozitsiyasi / regulyativ kapital	2,7%
Bevosita	Xorijiy valyutadagi aktivlar va majburiyatlar tafovuti	4,0 trln so'm
Bilvosita	Kreditlar dollarlashuvi	39,0%
Bilvosita	Depozitlar dollarlashuvi	21,0%
Bilvosita	Dollarlashuv tafovuti	18,0 f.b.

1-jadvaldan ko'rinadiki, bevosita kanal bo'yicha risk past, bilvosita kanal bo'yicha esa sezilarli. Kreditlarning beshdan ikki qismga yaqini xorijiy valyutada berilgan, depozitlarda esa bu ulush beshdan biriga yaqin. Dollarlashuv tafovutining dinamikasi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Kreditlar va depozitlar dollarlashuvi o'rtasidagi tafovut, foiz bandida[5; 6]

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

2-rasmga ko‘ra, tafovut 2021-yildagi 8,7 foiz banddan 2024–2025-yillarda 18,0 foiz bandga kengaygan. Aholi va korxonalar jamg‘armalarini so‘mda saqlashni afzal ko‘rayotgani holda kreditlarning valyuta tarkibi sekinroq o‘zgarmoqda. Bu xorijiy valyutadagi kreditlarning tobora katta qismi tashqi qarz hisobidan moliyalashtirilayotganini va kurs shoki yuz berganda risk qarz oluvchilar orqali bankka qaytishini anglatadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi bank valyuta riskini baholashda ochiq valyuta pozitsiyasi bilan bir qatorda kreditlar va depozitlar dollarlashuvi tafovutini bilvosita risk indikatori sifatida qo‘llash taklif etilganidan iborat.

Umuman olganda, O‘zbekiston bank tizimida valyuta riskining asosiy qismi bankning o‘z pozitsiyasida emas, mijozlar balansida joylashgan. Shundan kelib chiqib, banklarda valyutada kredit olgan mijozlarni valyuta daromadi bor-yo‘qligiga qarab majburiy guruhlash, dollarlashuv tafovutini ichki risk-hisobotlarga kiritish va kurs shoki ssenariylarida kredit yo‘qotishlarini baholashni joriy etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Basel Committee on Banking Supervision. Minimum Capital Requirements for Market Risk. Basel: Bank for International Settlements, 2019.
2. Otajonov T.X. Zamonaviy tijorat banklar faoliyatida valyuta risklarining ahamiyati // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. 2024. Vol. 4(07). B. 86–89.
3. Rancière R., Tornell A., Vamvakidis A. Currency Mismatch, Systemic Risk and Growth in Emerging Europe // Economic Policy. 2010. Vol. 25(64). P. 597–658.
4. https://cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Xorijiy valyutalarning so‘mga nisbatan rasmiy kurslari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhi. Toshkent, 2026. https://cbu.uz
6. Markaziy bankning 2022-yil yakunlari bo‘yicha dollarlashuv ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi axboroti // Gazeta.uz. 2023-yil 8-iyun. https://gazeta.uz/en/2023/06/08/cbu

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.